

MARTIN HARTMAN — TRANSLATOR OF NAVOI'S WORKS

Sherzodjon Baxromjon o'g'li QODIROV

Doctoral student (PhD)

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan

MARTIN HARTMAN — NAVOIY ASARLARI TARJIMONI

Sherzodjon Baxromjon o'g'li QODIROV

Doktorant (PhD)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

МАРТИН ХАРТМАН — ПЕРЕВОДЧИК ПРОИЗВЕДЕНИЙ НАВОИ

Шерзоджон Бахромжон угли КОДИРОВ

Докторант (PhD)

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы
имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан kadirov1007@mail.ru <https://orcid.org/0009-0006-4523-7142>

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Qodirov Sh. B. Martin Hartman — Navoiy asarlari tarjimoni // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 6. — B. 181-197.

<https://doi.org/10.36078/1710323112>

Received: October 31, 2025

Accepted: December 17, 2025

Published: December 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. This article analyzes Martin Hartmann's work in the context of the study of the heritage of Alisher Navoi, set against the backdrop of scientific trends observed in European Orientalism during the late 19th and early 20th centuries. The philological methods used by Hartmann in working with Chigatai texts, the principles of analyzing poetic structures, and the lexical and stylistic solutions observed in translating Navoi's works into German are identified. The issues of content accuracy in translations, the preservation of semantic layers, and the transfer of poetic images are evaluated through a comparative approach. The connection between Hartmann's work and German orientalism of the time, and the influence of his scientific heritage on the development of Turkology and non-traditional studies, are also highlighted. According to the results of the study, Martin Hartmann's translations were an essential tool for introducing Navoi's works into the European scientific environment and were evaluated as a component of the scientific processes that laid the foundation for the formation of new directions in Orientalism.

Keywords: Martin Hartmann; Alisher Navoi; Caghatai language; history of translation; German orientalism; Turkology; philological analysis; European orientalism.

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Yevropa sharqshunosligida kuzatilgan ilmiy tendensiyalar fonida Martin Hartmannning Alisher Navoiy merosini o'rganish jarayonidagi faoliyati tahlil qilinadi. Hartman tomonidan chig'atoy matnlari bilan ishlashda qo'llangan filologik metodlar, poetik strukturalarni tahlil qilish tamoyillari hamda Navoiy asarlarini nemis tiliga tarjima qilishda kuzatilgan leksik va stilistik yechimlar aniqlanadi. Tarjimalarning mazmuniy aniqligi, semantik qatlamlarning saqlanishi va poetik obrazlarning ko'chirilishi masalalari qiyosiy

yondashuv asosida baholanadi. Shuningdek, Hartman ijodining o'sha davr nemis sharqshunosligi bilan aloqadorligi, olim ilmiy merosining turkologiya va noan'naviy tadqiqotlarning rivojiga ta'siri ham yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Martin Hartman tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar Navoiy asarlarini Yevropa ilmiy muhitiga tanitishda muhim vosita bo'lgani aniqlandi va sharqshunoslikda yangi yo'nalishlar shakllanishiga zamin yaratgan ilmiy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida baholandi.

Kalit so'zlar: Martin Hartman; Alisher Navoiy; chig'atoy tili; tarjima tarixi; nemis sharqshunosligi; turkologiya; filologik tahlil; Yevropa sharqshunosligi.

Аннотация. В статье анализируется деятельность Мартина Хартмана по изучению наследия Алишера Навои в контексте научных тенденций, характерных для европейского востоковедения конца XIX – начала XX века. Рассматриваются филологические методы, применявшиеся Хартманом при работе с чагатайскими текстами, принципы анализа поэтических структур, а также лексические и стилистические решения, выявленные в процессе перевода произведений Навои на немецкий язык. В рамках сравнительного подхода оцениваются вопросы смысловой точности переводов, сохранения семантических слоев и передачи поэтических образов. Кроме того, освещается связь научной деятельности Хартмана с немецкой ориенталистикой рассматриваемого периода, а также влияние его научного наследия на развитие тюркологии и формирование нетрадиционных направлений исследований. По результатам исследования установлено, что переводы, выполненные Мартином Хартманом, сыграли важную роль в популяризации произведений Навои в европейской научной среде и были значимым элементом научных процессов, способствовавших формированию новых направлений в востоковедении.

Ключевые слова: Мартин Хартманн; Алишер Навои; чагатайский язык; история перевода; немецкое востоковедение; тюркология; филологический анализ; европейская ориенталистика.

Kirish

Martin Hartman 1851-yili Breslau shahrida protestant ruhoniysi oilasida tug'ilgan. 1870–1871-yillardagi Fransiya-Prussiya urushi davrida diniy-rasmiy xodim (harbiy ruhoniylar) sifatida xizmat qilgan [Marchand 2009: XVII–XVIII]. Teologik ta'limni tark etganidan so'ng, u Fleischer rahbarligidagi sharq tillari bo'limida tahsil oladi va 1874-yili semit tillardagi ko'p harfli (pluriliteral) shakl haqida yozilgan dissertatsiyasi bilan Leyptsigda doktorlik darajasini oladi [Hartmann, 1875]. Doktorlikdan so'ng, Hartman bir yil Edirnada xususiy o'qituvchi sifatida yashagan. 1876-yili esa Istanbuldagi Germaniya konsulligida tarjimon-dragoman vazifasida ishlay boshlagan. Aynan shu yillari u Usmonli turk tilini amaliy darajada chuqur o'zlashtirgan [Hanisch 2000: XVIII; Fück 1955: 269]. Keyinchalik u Bayrutga ko'chib, 1887-yilgacha xuddi shu lavozimda xizmat qilgan. Ushbu tayinlov uning diplomatik faoliyatidagi ilk tajriba edi.

Bayrutda o'tkazilgan yillar unga arab shevalari, adabiyoti va arab dunyosidagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar bo'yicha tadqiqotlarini chuqurlashtirish imkonini bergan [Marchand 2009: 356; Hanisch 1992:

17]. Uning mashhur “Arabischer Sprachführer für Reisende” – “Sayohatchilar uchun arabcha suhbatnoma”si Bayrutdagi amaliy tajribalar mahsuli bo‘lgan. Bu kitob Suriya hududidagi mahalliy tillarni qamrab olgan bo‘lib, Germaniya sayyohlari va savdogarlarining kundalik muloqotini osonlashtirgan. Kramer va Fückning ta’kidlashicha, mazkur qo‘llanma hatto bugungi kunda ham qimmatli manba sifatida baholanadi [Kramer 1989:64; Fück 1955: 269]. 1887-yili Hartman Tashqi ishlar vazirligidan iste’foga chiqib, Berlin shahridagi **Seminar für Orientalische Sprachen (SOS)** – Sharq tillari seminarida arab tili o‘qituvchisi sifatida ishlay boshlagan [Hanisch 2000: XVIII; Mangold 2004: 240–242; Fück 1955: 269]. Arab tilidan tashqari, u musulmon xalqlarining antropologik va sotsiokultural masalalariga bag‘ishlangan ma’ruzalar ham o‘qigan [Hartmann 1912: III].

Hartman Usmonli hududlari va Uzoq Sharqqa bir necha ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirgan. 1902- va 1903-yillardagi Turkiston safari, ayniqsa, muhim bo‘lgan: unga viloyat hokimi tomonidan rasmiy ruxsatnoma berilgan, bu ruxsat ilmiy materiallar va kolleksiyalarni to‘plab, tashishni osonlashtirgan. Bu tajribalar tufayli Hartman Germaniya Tashqi ishlar vazirligi uchun Turkiston bo‘yicha yetakchi ekspertga aylangan [Mark 2012: 361]. 1912-yil sentabrda u bir guruh filologik an’anaga qarshi chiqqan sharqshunoslar bilan birga Deutsche Gesellschaft für Islamkunde – Germaniya Islomshunoslik jamiyatini tashkil etadi. Shundan so‘ng Georg Kampffmeyer bilan birga “Die Welt des Islam” – “Islom olami” jurnalini nashr eta boshlaydi [Heine 2002: 175–179; Haarmann 1974: 62]. Dastlab Berber ertaklaridan tortib arab matbuotigacha bo‘lgan mavzularda yozgan Hartman keyinchalik tadqiqotlarini Islom dunyosi va Usmonli davlatiga oid siyosiy, madaniy va adabiy masalalarga yo‘naltiradi. U adabiyot, san’at, islom tarixi, madaniyati va dini bo‘yicha turli kitoblar va maqolalar chop etadi.

Martin Hartman Yevropada, asosan, arabshunos olim sifatida tanilgan va o‘zining ilmiy faoliyatida Sharq mamlakatlarida davlat qurilishi (Turkiya, “Yosh turklar” misolida) va madaniy hayotni tadqiq etgan. U tadqiqotlarni shunchaki jurnalistik kuzatuvlardan zamonaviy ilmfan obyektiga ko‘tara olgan olim edi. Zamonaviy Yaqin Sharqni alohida akademik yo‘nalish sifatida nemis universitetlari tizimiga kiritish bo‘yicha dastlabki izchil harakatlar Martin Hartman tomonidan boshlab berilgan. Hartman o‘z davrining eng nufuzli arabshunoslaridan biri bo‘lib, XIX–XX asr boshidagi ilmiy muhitda Yaqin Sharq bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar paradigmasini shakllantirishga intilgan.

Tadqiqot metodlari

Ushbu tadqiqotga Martin Hartman tomonidan 1902-yil Heidelberg shahridagi “Karl Winter’s Universitätsbuchhandlung” nashriyotida chop etilgan “Caghataisches” – “Chig‘atoy tili” asarida keltirilgan bir g‘azalni asl matn [“Badoye’ ul-bidoya” 1987] bilan o‘zaro solishtirish hamda ma’no-mazmunini qiyoslab o‘rganish, tarjima va ma’nodagi o‘xshash va farq qiluvchi jihatlarini aniqlash asosiy maqsad qilib olindi. Shu sababli, tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, tarjima tahlili, filologik tahlil, badiiy-estetik tahlil hamda mazmuniy-g‘oyaviy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Qiyosiy metod asosida Alisher Navoiy gʻazali asl manba va “Caghataisches” asarida keltirilgan tarjima hamda eski oʻzbek yozuvidagi matn oʻzaro solishtirildi. Tarjima hamda filologik tahlil metodlari orqali gʻazalning tarjimasidagi oʻziga xosliklar, oʻxshash va farqli jihatlar aniqlandi. Tahlil davomida gʻazaldagi tasavvufiy mazmun-mohiyat tarjimada qay darajada ifoda etilgani oʻrganildi.

Natijalar

Martin Hartmannning tashabbusi bilan arab tili islom sivilizatsiyasining filologik tadqiqotlaridan amaliy-siyosiy yoʻnalishlarga kengayishi kuzatilgan [Wokoeck 2009]. Martin Hartman oʻzbek tili va adabiyoti bilan 10 yilcha jiddiy shugʻullangan. Uning “Caghataisches” asari Vamberining “Caghataisches Sprachstudien” asariga nisbatan, asosan, Alisher Navoiy asarlariga bagʻishlanganligi bilan alohida qimmatli asardir. Kitob ikki qismdan iborat boʻlib, uning birinchi qismiga Xyugo Makas tomonidan yozilgan “Kurd tili darsligi” kiritilgan boʻlsa, ikkinchi qismidan esa “Chigʻatoy tili darsligi” oʻrin olgan. Kitob 108 sahifadan iborat boʻlib, uning 18 sahifasi tushuntirish, 6 sahifasi chigʻatoycha muqaddima va soʻzboshi hamda 82 sahifasi asosiy qismdan iborat. Darslikning kirish qismida uning yozilish sabablari keltirilgan. Kitob shayx ul-islom Muhammad Sodiqning usmonli turk va oʻzbek tillarini qiyoslab yozgan “Turkiy til grammatikasi” [Sadiq 1888] asariga javoban tayyorlangan. Garchi “Turkiy til grammatikasi” Turkiyada oʻzbek tilini oʻrganmoqchi boʻlganlar uchun yaratilgan va turk tilshunosi Ahmad Midxat tomonidan kitobga taqriz yozilib, kitob “ijobiy va ayni vaqt uchun zarur” deb topilgan boʻlsa-da, Martin Hartman uni “mutlaqo yaroqsiz” deb baholaydi va kamchiliklar sifatida quyidagilarni sanaydi:

1. Muallifning kitobchilikda tajribasi yoʻqligi.
2. Kitob eski qolipda yozilgani.
3. Muallifning faqat faktlarni toʻplovchi sifatida namoyon boʻlishi.
4. Voqealar davriyligining yoʻqligi. Bu kabi jami kamchiliklar 8ta boʻlib, ularni Hartman kitobning kirish qismida keltirib oʻtgan. Yana Hartman kitobining kirish qismidagi 11-sahifada Markaziy Osiyo turklari tilining tovush tizimi haqida maʼlumot berilgan. Ikkinchi qismida, yaʼni XVIII–XIX sahifalarida kitobda keladigan qisqartmalar tushuntirilgan. Kitobning uchinchi – Asosiy qismi esa ikkiga ajratilgan: birinchi boʻlim Sharq anʼanasiga koʻra chigʻatoycha muqaddima va janob sultonga maqtov bilan boshlanadi. Muqaddima uch qismga ajratilgan, u Allohga hamd, Paygʻambarga naʼt va sultonga maqtovdan iborat. Muqaddima eski oʻzbek yozuvida yozilgan boʻlib, matn ostida esa nemis tilidagi tarjima va izohlar keltirilgan [Hartmann 1902].

Keyingi qism esa grammatika bobi bilan boshlanadi (6–83-sahifalar). Bob 6 ta katta guruhga boʻlingan va jami 116ta qoida berilgan. Qoidalarni tushuntirish maqsadida esa soddadan murakkablikka qarab misollar, dastavval, oddiy soʻzlar, soddaga gaplar, keyinchalik esa gʻazal misralari va baytlar keltirilgan. Kitobda Alisher Navoiy gʻazallaridan 57 bayt berilgan va ular Alisher Navoiyning hijriy 1289-yili Istanbulda nashr etilgan “Mahbub ul-qulub” asaridan olingan. Hartmann xrestomatiyasida Navoiyning uch gʻazali toʻliq holda uchraydi.

Birinchi gʻazal jami 7 baytdan iborat boʻlib,
Ravshandururki, mehr yuzungdin olur safo,
Yoʻqsa, ne zahj ila qamar andin topar ziyo? – bayti bilan boshlanadi [Navoiy 1987: 387] (1-ilova). Hartman kitobida gʻazalning eski oʻzbek yozuvdagi matni (2-ilova) hamda uning davomidan nemischa tarjimini (3-ilova) ham keltirgan.

Ikkinchi gʻazal ham 7 baytdan iborat boʻlib,
Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo, /
Aylamas toʻti takallum shakkaristondin judo [Navoiy 1987: 42] bayti bilan boshlanadi (4-ilova). Gʻazalning chigʻatoy yozuvidagi matni va tarjimasi ham berilgan (5- va 6-ilovalar).

Uchinchi gʻazal esa 5 baytdan iborat va quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Mahvashekim, mehrdin boʻldum jahon ovorasi,
Rahm etib bir chora qilmas oʻlsa ham bechorasi.

Gʻazalning eski oʻzbek yozuvidagi matni va tarjimasi 8- va 9-ilovalarda keltirildi.

Martin Hartman Navoiy asarlarini tarjima qilishdan avval arab va turk shoirlarining ijodiga asoslanib koʻplab toʻplamlar yaratgan, ulardagi sheʼrlarning baʼzilarini oʻzi tarjima qilgan. Xususan “Lieder der libyschen Wüste” (1881) – “Liviya sahrosidagi arab qabilalari sheʼriyati toʻplami” [Hartmann 1881], “Das arabische Vierzeiler” [Hartmann 1896] – “Arab ruboiy anʼanalari tahlili”, “Kleine Beiträge zur arabischen Literaturgeschichte” [Hartmann 1894] – “Arab sheʼriyati tarixiga oid kichik tadqiqotlari”da ayrim sheʼr va gʻazallar Martin Hartman tomonidan tarjima qilingan.

Adabiyotshunoslikda Navoiy shoirligining asosiy qatlamini tasavvufiy dunyoqarash belgilab berishi taʼkidlanadi. Uning badiiy merosida islomiy maʼrifat, ruhiy kamolot va timsoliy maʼno tizimi markaziy oʻrin egallaydi. Ayniqsa, ishq lirikasida uchraydigan qahramon – shoirning oʻz badiiy tasavvurida shakllangan ideal “oshiq” obrazining badiiy aksidir. Shu sababli Navoiy oʻzining ishqiy sheʼriyati davomida koʻpincha ana shu lirik qahramonning nutqi va nigohi orqali fikrni ifodalaydi.

Navoiyning sheʼriy matnlaridagi ichki (botiniy) va tashqi (zohiriy) qatlamlarning murakkab semantik qurilmasi haqida adabiyotshunos Jamol Kamol muhim kuzatuvlarini bildiradi. Uning fikricha, shoirning har bir bayti bir necha darajadagi maʼno va mazmunni oʻzida jamlay oladi. Ularning sharhi esa birgina talqin bilan cheklanmay, turli maʼnaviy qirralarni ochib beruvchi koʻpsonli izohlarni talab etadi [Kamol 1991: 137]. Shu bois Navoiy sheʼriyatidagi ramz va ishoralarning serqirraligi uni bir nazar bilan toʻliq qamrab olishga imkon bermaydi.

Mazkur xususiyatlar shuni koʻrsatadiki, Navoiyning koʻp asarlarida insonning oʻz nafsiga qarshi maʼnaviy kurashi hamda ruhning Haqqa yetishish yoʻlidagi intilishi bosh mavzu sifatida talqin qilinadi. Bu gʻoyalar shoir tomonidan badiiy sanʼatlarning keng majmuasi orqali nafis usulda ifodalangan. Xususan, istiora, tanosub va mubolagʻa kabi tasvir vositalari shoirning tasavvufiy qarashlarini yoritishda yetakchi vazifani bajaradi va uning poetik tafakkurining asosiy belgilaridan biri sifatida namoyon boʻladi.

Munozara

Navoiy asarlarining nemis tiliga qilingan tarjimalarini sharhlash, qiyosiy tahlil qilish, o'zbek-nemis adabiy aloqalari doirasida hamkorlik qilish, bu tarjimalar misolida keyingi istiqbollar uchun mukammallashtirish yo'llarida kichik qadam bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz. Shu maqsad bilan Navoiyning ushbu *Ravshandururki, mehr yuzungdin olur safo, / Yo'qsa, ne zaji ila qamar andin topar ziyo?* – matlasi bilan boshlanuvchi g'azalini Martin Hartman tomonidan qilingan tarjima bilan qiyoslab tahlil qilishga jazm etdik. Yuqorida ta'kidlanganidek, g'azal "Chig'atoy tili" darsligining "Xrestomatiya" qismida berilgan.

Birinchi bayt:

Ravshandururki, mehr yuzungdin olur safo,

Yo'qsa, ne zaji ila qamar andin topar ziyo?

Tarjimasi:

*Es ist klar, dass die Sonne von deinem Antlitz ihren Glanz erhält,
wie sollte sonst der Mond von ihr Licht empfangen?*

Mazmuni:

Quyosh sening yuzingdan yorug'lik olgani uchun ham porloqdir,/Bo'lmasa, nima sababdan oy undan nur oladi?

Tarjimada semantik birlik to'liq saqlangan, mehr – die Sonne – quyosh, qamar – der Mond – oy, yuzung – dein Antlitz, safo/ziyo – glanz/Licht. Baytdagi sabab-natija munosabati ("yo'qsa... ne vajh ila...") nemis tilida ritorik savol shaklida to'g'ri qayta berilgan. Shu jihatdan tarjima mazmunan adekvat hisoblanadi. Badiiy san'atlardan asl baytda tanosub (quyosh–oy–nur), husni ta'lil (oy nuri yor jamoliga bog'lanadi) va ishqiyy mubolag'a mavjud. Nemischa tarjimada ushbu san'atlar to'liq qayta yaratilmagan, biroq ularning funksional ekvivalenti saqlangan. Xususan, husni ta'lil nemis tilida tabiiy poetik mantiq orqali ifodalangan. Asl baytdagi ba'zi nozik jihatlar soddalashgan, "ravshandururki" so'zidagi ta'kid va ohang kuchi nemis tilida faqat "Es ist klar" bilan berilgan; safo va ziyo o'rtasidagi nozik semantik farq (poklik nuri – yorug'lik) nemis tilida umumiy "Glanz / Licht" bilan birlashtirilgan. Bu holat she'riy tarjimalar uchun tabiiy va qabul qilinadigan yo'qotish sifatida baholanadi.

Ikkinchi bayt:

G'arqi muhiti ishqing edi jon ila ko'ngul,

Ul damki, ruh emas edi tan birla oshno.

Nemischa tarjima:

*Versunken in den Ozean deiner Liebe waren Seele und Herz damals,
als der Lebensodem noch nicht mit dem Leibe vertraut war.*

Bayt mazmuni: *Ruh hali tanga kirmasidan oldin (tan bilan oshno bo'lmasidan oldin) jon bilan ko'ngil sening ishqing dengizida g'arq edi (dengiziga cho'mgan edi).*

Tarjimada asosiy mazmun to'liq saqlangan: G'arqi muhiti – versunken in den Ozean; ishqing – deiner Liebe; jon ila ko'ngul – Seele und Herz; ul damki – damals, als; ruh emas edi tan birla oshno – als der Lebensodem noch nicht mit dem Leibe vertraut war. Ayniqsa, "Lebensodem" birligi "ruh" tushunchasining diniy-falsafiy ohangini nemis

tilida muvaffaqiyatli aks ettirgan. Asl baytdagi tasavvufiy qatlam nemis tilidagi tarjimada konseptual jihatdan saqlangan, tarjimada tasavvufiy fikrlar soddalashtirilmagan, balki nemis falsafiy-poetik an'anasiga moslashtirilgan, bu yutuqning boisi esa Martin Hartmaning asli arabshunos olim ekaniga bog'liqdir. G'azaldagi badiiy san'atlarga keladigan bo'lsak,

- istiora (ishq — muhit/dengiz), Ozean deiner Liebe orqali istiora to'liq saqlangan;
- mubolag'a (g'arq bo'lish), versunken fe'li g'arqlik holatini aniq beradi;
- tanosib (jon – ko'ngil – ruh – tan), ichki tanosib mantiqan buzilmagan.

Bu baytdagi tarjimonning yutug'i sifatida shuni ta'kidlashni lozimki, ruh so'zi tarjimasiga "Lebensodem" tanlovi oddiy "Geist" yoki "Seele"ga nisbatan yanada nozik va metafizik ohang beradi.

Uchinchi bayt:

*Gulda yuzung latofatidin range ko'rmasa,
Bulbulg'a ne edi bu fig'on birla, bu navo?*

Mazmuni:

Agar gul yuzida sening go'zalliging rangini ko'rmagan bo'lsa, bulbul nega bunday fig'on (nola) chekib, navo qiladi – kuylaydi.

Tarjimasi:

*Sähe ich nicht von deines Antlitzes Zauber einen Schein in der Rose,
woher kämen der*

Nachtigall dieses Klagen, diese Melodien?

Asl baytdagi ritorik savol tuzilmasi nemis tilida ham to'g'ri qayta yaratilgan. Sabab–natija mantiqi saqlangan. Tarjimada asosiy semantik unsurlar ifodalangan:

- gul – die Rose.
- yuzung latofati – deines Antlitzes Zauber.
- rang – Schein.
- bulbul – die Nachtigall.
- fig'on / navo – Klagen / Melodien.

Nemischa tarjimada "Sähe ich nicht ..." konstruksiyasi qo'llanib, subyektiv nutq elementi kiritilgan. Asl baytda esa bayon bevosita lirik subyektga bog'lanmagan, umumiy poetik hukm shaklida berilgan. Bu holat mazmunga jiddiy zarar yetkazmagan bo'lsa-da, ohang jihatidan yengil siljish keltirib chiqargan. Latofat tushunchasining nozik estetik va irfoniy ma'nolari Zauber bilan nisbatan soddalashtirishgan. Klagen va Melodien juftligi orqali fig'on va navo o'rtasidagi ichki musiqiylik nemis tilida aniq aks ettirilgan.

To'rtinchi bayt:

*Bir zarra og'zi ramzini har kimki angladi,
Yo'li adam tariqiduru zodi rah – fano.*

Mazmuni:

Agar zarradek (ko'rinmas) og'izning ramzini kim anglagan bo'lsa, uning yo'li adam – yo'qlik (faqrlik) yo'lidir, ozig'i esa – fano.

Tarjimasi:

Wer so viel wie ein Sonnenstäubchen verstand von dem Rätsel (der geheimnisvollen Rede) deines Mundes,

Der er-wählt als Weg die (Selbst-) Vernichtung und als Weg-zehrung die (Selbst) Entäußerung.

Bu bayt Alisher Navoiy ijodiga xos bo'lgan irfoniy tafakkurning yorqin namunasi sifatida talqin qilinadi. Unda ma'rifat jarayoni, mavjudlikdan voz kechish va fano holatiga yetish g'oyasi ramziy shaklda ifodalangan. Baytda markaziy obraz sifatida "og'iz" ramzi keltiriladi. Og'iz mumtoz tasavvufiy poetikada ilohiy kalom, sirli nutq va yashirin haqiqat manbayi sifatida talqin qilinadi. Ushbu ramzning "bir zarra" bilan bog'lanishi uning nihoyatda nozik, ko'zga ko'rinmas va faqat tanlangan idrok egalarigagina ayon bo'ladigan mohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shunday qilib, baytda ma'rifatning miqdoriy emas, balki sifat jihatdan yuksakligi ta'kidlanadi.

Baytning ikkinchi misrasida ushbu idrok natijasi sifatida "adam tariqi" va "fano" tushunchalari keltiriladi. Adam tasavvufda yo'qlik, faqrlik, o'z "men"idan voz kechish holatini anglatib, solik bosib o'tadigan ma'naviy yo'l sifatida talqin qilinadi. Fano esa ushbu yo'lda solikning ruhiy "ozug'i", ya'ni o'zligini Haq oldida yo'qotish orqali komillikka erishish bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, bayt ma'rifat – adam – fano ketma-ketligiga asoslangan qat'iy ontologik mantiq asosida qurilgan.

Nemischa tarjimada baytning asosiy mazmuniy yadrosi saqlangan bo'lib, zarra metaforasi "*Sonnenstäubchen*" birligi orqali poetik noziklik bilan berilgan. Bu tanlov asl matndagi mikrokosmik ramzni nemis tilida muvaffaqiyatli qayta yaratgan. Shuningdek, sabab –natija munosabatining buzilmagani, ya'ni ramzni anglashning muqarrar ravishda ma'naviy yo'l tanlashga olib kelishi mantiqan to'g'ri aks ettirilgan. Biroq tarjimada tasavvufiy terminologiya bilan bog'liq ayrim konseptual siljishlar kuzatiladi. Jumladan, *adam tariqi* tushunchasining *Selbst – Vernichtung* shaklida berilishi, islomiy-irfoniy "yo'qlik" va "faqrlik" ma'nolarini g'arb falsafasiga xos bo'lgan ekzistensial yoki nigilistik ohang bilan almashtiradi. Xuddi shuningdek, *fano* tushunchasining "*Selbst – Entäußerung*" orqali ifodalanishi tasavvufiy "fano fi'lloh" mazmunini bilvosita saqlagan holda, uni hegelcha falsafiy semantik maydonga yaqinlashtiradi. Stilistik jihatdan esa tarjimada "deines Mundes" shaklining qo'llanishi asl matndagi umumlashtirilgan, kosmik va shaxsdan mustaqil ramzni aniq ikkinchi shaxsga bog'lab qo'ygan. Natijada baytning universalligi va irfoniy umumiyliigi qisman toraygan. Xulosa qilib aytganda, mazkur nemischa tarjima badiiy jihatdan kuchli va intellektual murakkablikni saqlagan, biroq tasavvufiy tushunchalarni g'arb falsafiy terminologiyasi orqali talqin qilgan erkin, interpretativ variant sifatida baholanadi. Shu bois, u ilmiy tadqiqotlarda qiyosiy-tahliliy material sifatida samarali qo'llanilishi mumkin, ammo sof tasavvufiy aniqlik talab etiladigan kontekstda izoh bilan birga ishlatilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Beshinchi bayt:

Ul zindadil hayoti abad vaslidin topar,

Kim neshi g'amni no'sh der-u dardni davo.

Mazmuni:

*Kim g'am nayzasini totli, dardni davo deb bilsa, unday qalbi tirik
(kishi) abadiy hayotga yetishadi (abadiy hayotning vasliga yetishadi).*

Tarjimasi:

*Jener Starkherzige findet das ewige Leben in seiner
Liebesvereinigung,
der den Kummer des Stachels Honig nennt und seinen Schmerz
Arznei.*

Ushbu bayt Alisher Navoiy lirikasiga xos bo'lgan irfoniy-falsafiy tafakkurni ifodalaydi. Unda insonning ma'naviy kamoloti azob-uqubatni inkor etish orqali emas, balki uni ongli ravishda qabul qilish va ichki ma'noga aylantirish orqali ro'yobga chiqishi g'oyasi ilgari surilgan. Baytning birinchi misrasida "zindadil" tushunchasi markaziy semantik yukni bajaradi. Zindadil – tasavvufiy an'anada qalbi Haq muhabbati bilan tirik, ma'naviy jihatdan uyg'oq va sabr maqomiga yetgan shaxs sifatida talqin qilinadi. Bunday shaxs uchun "hayoti abad vasli", ya'ni abadiy hayotga yetishish, ilohiy yaqinlik va baqo holati asosiy maqsad sifatida ko'rsatiladi. Bu o'rinda vasl tushunchasi biologik yoki dunyoviy mavjudlik emas, balki ilohiy birlik bilan bog'liq ontologik holatni anglatadi. Ikkinchi misrada esa ushbu maqomga eltuvchi ichki holat tasvirlanadi. "Neshi g'am" (g'am nayzasi) va "dard" kabi salbiy ma'no berishi mumkin bo'lgan tushunchalar no'sh (shirin) va davo sifatida talqin qilinadi. Bunday zidlantirish yordsmids baytda irfoniy mazmun shakllantirilgan: azob manbayi najot vositasiga aylantiriladi. Ushbu holat husni ta'lil san'ati orqali asoslanib, ishqiy balo va sinovlarning ilohiy hikmatga ega ekani ko'rsatiladi. Natijada sabr va rizo orqali baqoga yetish g'oyasi mustahkamlanadi. Nemischa tarjimada baytning mazmuniy asosi umumiy holda saqlangan. Zindadil tushunchasi "Starkherzige" birligi orqali ruhan qudratli, mustahkam qalbli shaxs sifatida berilgan. Bu tanlov asosiy g'oyani yetkazgan bo'lsa-da, tasavvufiy "qalbning Haq bilan tirikligi" ma'nosi qisman axloqiy-psixologik talqinga siljigan. Xuddi shuningdek, "hayoti abad vasli" birligi "das ewige Leben in seiner Liebesvereinigung" shaklida ifodalanib, vasl tushunchasi ishqiy-falsafiy kontekstda ochilgan, ilohiy konnotatsiya esa bilvosita saqlangan. Obrazli qatlam nuqtayi nazaridan tarjimada "Stachel / Honig" hamda "Schmerz / Arznei" juftliklari orqali asl baytdagi istiora va tazod qayta muvaffaqiyatli yaratilgan. G'amning shirinlashtirilishi va dardning davoga aylanishi nemis tilida ham mantiqan tushunarli va poetik tarzda berilgan. Stilistik jihatdan tarjima ritmik muvozanatga ega bo'lib, metaforalar tizimi buzilmagan. Mazkur nemischa tarjima mazmunan yuqori darajada adekvat, badiiy-paradoksial tizimni saqlagan va tasavvufiy g'oyani o'quvchi uchun tushunarli poetik shaklda ifodalagan variant sifatida baholanadi. Shu bilan birga, "zindadil" va "vasl" tushunchalarining irfoniy chuqurligi qisman axloqiy-falsafiy talqinga siljigan. Shunga qaramay, tarjima ilmiy- qiyosiy tahlilda ishonchli va muvaffaqiyatli namuna sifatida qo'llanishi mumkin, sof tasavvufiy aniqlik talab etiladigan kontekstlarda esa izoh bilan birga ishlatilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Oltinchi bayt:

*Lomeki, vasl ayog'ig'a topmishtur ittisol,
Ul lomdurki, o'rtag'a olmish ani balo.*

Mazmuni:

Vasl so‘zining oyog‘iga bog‘lanib olgan lom shunday lomki, uni balo o‘rtaga olgan. (Bunda vasl so‘zlarida lomning qo‘llanilishi orqali baytni tushunish kerak. “Lom” harfining shakliga ham e‘tibor qilish lozim).

Tarjimasi

Das Lam, das am Ende des Wortes was! (Liebesvereinigung)
Anschluß gefaden hat, ist eben jenes Lam, das das Wort bela (Pein) in seine Mitte genommen hat.

Mazkur bayt Alisher Navoiy ijodida uchraydigan harfiy-ramziy tasvirga asoslangan. Baytda alohida bir harf – “lom” asosiy ma’no yukini ko‘taruvchi poetik belgi sifatida qo‘llangan. Bayt mazmuniga ko‘ra, “vasl” so‘zining oxirida joylashgan lom harfi “ittisol”, ya’ni bog‘lanish va yaqinlashuv ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu holat tasavvufiy qarashlarda solikning Haqqa yetishishini ifodalaydi. Shu bilan birga, aynan shu lom harfi “balo” so‘zining markazida joylashgani orqali ishq yo‘lining balo va sinovlardan xoli emasligi ramziy tarzda ko‘rsatiladi. Demak, baytda vasl va balo bir-biridan ajralmas holatlar sifatida talqin qilinadi. Baytning ramziy qatlamida “lom” harfining shakli ham ahamiyatga ega. Uning egik va o‘ralma ko‘rinishi tasavvufiy talqinda kamtarlik, bo‘yin egish va ishq yo‘lida o‘zini topshirish ma’nolarini anglatadi. Shu sababli harf bu yerda oddiy yozuv belgisi emas, balki ma’naviy ma’noni ifodalovchi ramzga aylanadi. Nemischa tarjimada baytning asosiy g‘oyasi saqlangan. “Lom” harfining “vasl” so‘zining oxirida, “balo” so‘zining markazida joylashgani nemis tilida tushunarli tarzda ifodalangan. Biroq ayrim tasavvufiy tushunchalar tarjimada soddalashtirilib, berilgan. Xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur tarjima mazmunan mos va filologik jihatdan to‘g‘ri, biroq tasavvufiy mazmunning chuqur ramziy qatlamini to‘liq ochib bermaydi. Shu sababli u umumiy ilmiy tahlil uchun qulay bo‘lsa-da, maxsus tasavvufiy izoh bilan qo‘llanilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yettinchi bayt: (asl bayt)

O‘zdin qutul, Navoyiyu maqsadg‘a yetki, qush
Yetmas chamang‘a, bo‘lsa qafas ichra mubtalo.

Tarjimasi:

Mach dich los von dir selbst, Newa‘i, und gelange zum Ziel, denn nicht gelangt zur An der Vogel, wenn er im Käfig steckt.

Mazmuni:

Navoiy o‘zingdan (o‘z (o‘zlik) – nafs) qutulgin va maqsadingga yet, chunki qush agar qafas ichida tutilib, undan chiqolmasa, chamanga yetolmaydi.

Ushbu bayt Alisher Navoiy irfoniy lirikasida muhim o‘rin tutuvchi – nafsdan xalos bo‘lish va ma’naviy erkinlik g‘oyasini ifodalaydi. Baytda lirik subyekt o‘ziga murojaat qilib, “o‘zdan qutulish”, ya’ni nafs, ego va shaxsiy manfaatlardan voz kechish zarurligini ta’kidlaydi. Bu holat tasavvufda maqsadga — Haqqa yetishishning asosiy sharti sifatida qaraladi. Ikkinchi misrada ushbu fikr “qush” va “qafas” timsollari orqali ochib beriladi. Qush – inson ruhi yoki solik timsoli, qafas esa nafs, dunyoviy bog‘liqlik va cheklovlarni ifodalaydi. Qush qafasdan chiqmaguncha chamanga, ya’ni erkinlik, go‘zallik va kamolot makoniga yetolmasligi sabab-natija munosabati asosida ko‘rsatiladi. Shu tariqa, baytda nafsdan xalos bo‘lish – maqsadga yetishning zarur sharti ekani

ramziy tarzda mustahkamlanadi. Nemischa tarjimada baytning asosiy mazmuniy yadrosi saqlangan. “*Mach dich los von dir selbst*” birligi orqali “o‘zdan qutulish” g‘oyasi aniq ifodalangan, “*zum Ziel gelangen*” esa maqsadga yetish fikrini to‘g‘ri aks ettirgan. “Qush” va “qafas” timsollari ham nemis tilida mantiqan tushunarli tarzda qayta yaratilgan. Biroq tarjimada ayrim stilistik soddalashuvlar kuzatiladi. Jumladan, *chaman* timsolining tasavvufiy va poetik ranglari nemis tilida aniq ifodalanmagan, u umumiy “manzil” tushunchasiga yaqinlashtirilgan. Shuningdek, baytdagi ichki didaktik ohang nemischa variantda biroz nasihat ohangiga siljigan. Mazkur nemischa tarjima mazmunan adekvat, asosiy tasavvufiy g‘oyani to‘g‘ri yetkazgan, ramziy tuzilmani saqlagan. Shu bilan birga, u poetik va irfoniy nozikliklarni qisman soddalashtirgan variant sifatida baholanadi. Tarjima umumiy ilmiy va o‘quv kontekstida foydalanish uchun qulay bo‘lib, tasavvufiy mazmuniga bog‘lab chuqur tahlil qilish talab etilganda, qo‘shimcha izohlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Alisher Navoiyning tasavvufiy she‘rlari ularga xos bo‘lgan irfoniy – ontologik tafakkur, ramziy obrazlar tizimi va ichki mantiqiy yaxlitlik bilan ajralib turadi. G‘azalda ishq oddiy hissiy holat sifatida emas, balki ma‘naviy kamolotga eltuvchi asosiy kuch sifatida talqin qilingan. Baytlar ketma-ketligida solikning ruhiy yo‘li – nafsdan xalos bo‘lish, balo va azobni qabul qilish, fano orqali baqoga yetish g‘oyasi izchil ochib berilgan. G‘azalning asosiy yutug‘i shundaki, unda ishq, balo, vasl, fano, adam, nafs kabi tasavvufiy tushunchalar yagona konseptual tizim doirasida berilgan. Qush – qafas, gul – bulbul, quyosh – oy, zarra – olam kabi timsollar orqali ishqiy-irfoniy ma‘no kuchaytirilgan va o‘quvchi idrokiga yaqinlashtirilgan. Ayniqsa, harfiy ramziylik (lom harfi asosida qurilgan bayt) g‘azalning intellektual darajasini oshirib, Navoiyning poetik tafakkuri chuqurligini namoyon etadi.

G‘azalda tasavvufiy paradoks usuli muvaffaqiyatli qo‘llangan: g‘am – shirin, dard – davo, balo – vaslga eltuvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Bu usul orqali solikning ruhiy tajribasi badiiy va falsafiy jihatdan asoslab berilgan. Shu bilan birga, lirik subyektning o‘ziga murojaat qilishi (o‘zdin qutul) g‘azalga didaktik va ichki murojaat ohangini kiritadi. Nemischa tarjimalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, g‘azalning asosiy mazmuniy yadrosi va obrazlar tizimi ko‘p hollarda saqlangan. Tarjimalarda ramziy fikr tushunarli shaklda berilgan, sabab–natija munosabati buzilmagan va poetik mantiq izchil yetkazilgan. Bu holat g‘azalning g‘oyaviy qudratini boshqa til muhitida ham anglash imkonini yaratadi. Biroq kamchilik sifatida ayrim tasavvufiy tushunchalarning semantik jihatdan torayishini qayd etish mumkin. Xususan, *fano*, *adam*, *vasl*, *zindadil* kabi atamalar nemis tilida ko‘pincha axloqiy yoki falsafiy talqin doirasida ifodalangan, natijada ularning islomiy-irfoniy chuqurligi qisman susaygan. Shuningdek, ba‘zi tarjimalarda lirik universallik individual subyektaga bog‘lanib, baytlarning kayhoniy ko‘lamdagi ramziyligi toraygan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя // Мукаммал асарлар тўплами: I том. — Тошкент: Фан, 1987. — 489 б.
- Becker C.-H. Der Islam // Islamstudien. — Bd. II. — Heidelberg, 1920. — S. 228–481.
- Haarmann U. Die islamische Moderne bei den deutschen Orientalisten // Araber und Deutsche: Begegnungen in einem Jahrtausend / Hrsg. F. Kochwasser, R. Roemer. — Tübingen; Basel: Horst Erdmann Verlag, 1974. — S. 56–91.
- Hanisch L. Machen Sie doch unseren Islam nicht gar zu schlecht: Der Briefwechsel der Islamwissenschaftler Ignaz Goldziher und Martin Hartmann 1894–1914. — Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2000. — 496 S.
- Hartmann M. Lieder der libyschen Wüste. — Leipzig: Weigel, 1881. — 243 S.
- Hartmann M. Kleine Beiträge zur arabischen Literaturgeschichte // Zeitschrift der Deutschen Morgenländischen Gesellschaft. — 1894. — Bd. 48, H. 3. — S. 345–372.
- Hartmann M. Das arabische Vierzeiler. — Leipzig: Hinrichs, 1896. — 269 S.
- Hartmann M. Caghataisches. — Heidelberg: Carl Winter's Universitätsbuchhandlung, 1902. — 113 S.
- Heine P. Die Deutsche Gesellschaft für Islamkunde // Islamstudien ohne Ende: Festschrift für Werner Ende zum 65. Geburtstag / Hrsg. R. Brunner, M. Gronke, J. P. Laut, U. Rebstock. — Würzburg: Ergon Verlag, 2002. — S. 175–181.
- Жамол Камол. Қизил, сариғ, яшил. Алишер Навоий ғазаллари: шарҳлар / нашрга тайёрловчилар А. Шаропов, Б. Эшпўлатов. — Тошкент: Камалак, 1991. — 137 б.
- Kramer M. Arabistik and Arabism: The passions of Martin Hartmann // Middle Eastern Studies. — 1989. — Vol. 25, No. 3. — P. 63–86.
- Mangold S. Eine weltbürgerliche Wissenschaft: Die deutsche Orientalistik im 19. Jahrhundert. — Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 2004. — 89 S.
- Marchand S. L. German Orientalism in the Age of Empire: Religion, Race, and Scholarship. — New York: Cambridge University Press, 2009. — 30 p.
- Mark R. A. Im Schatten des Great Game: Deutsche Weltpolitik und russischer Imperialismus in Zentralasien 1871–1914. — Paderborn; München; Wien; Zürich: Verlag Ferdinand Schöningh, 2012. — 504 S.
- Sadiq M. Ussi lisani turki // Caghataisches. Materialien zu einer Geschichte der Sprachen und Literatur des Vorderen Orients / M. Hartmann. — Berlin, 1888. — S. 1–5.

Тожиҳўжаев М. Ўзбек адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. — Тошкент: Баёз, 2016. — 180 б.

Wokoeck U. German Orientalism: The Study of the Middle East and Islam from 1800 to 1945. — London; New York: Routledge, 2009. — 35 p.

References

Alisher Navoi. (1987). *Badoyi' ul-bidoya* (The beginning of beauties), Tashkent, Fan. (In Uzb.)

Becker, C. H. (1920). *Islamstudien*, vol. II, 228–481. (In Ger.)

Haarmann, U. (1974). *Araber und Deutsche Begegnungen in einem Jahrtausend* (Arabs and Germans encounters over a millennium), Tuebingen, Basel, Horst Erdmann Verlag, pp. 56–91. (In Ger.)

Hanisch, L. (2000). *Machen Sie doch unseren Islam nicht gar zu schlecht Der Briefwechsel der Islamwissenschaftler Ignaz Goldziher und Martin Hartmann 1894–1914* (Do not portray our Islam too negatively), Wiesbaden, Harrassowitz Verlag. (In Ger.)

Hartmann, M. (1881). *Lieder der libyschen Wueste* (Songs of the Libyan desert), Leipzig, Weigel. (In Ger.)

Hartmann, M. (1894). *Zeitschrift der Deutschen Morgenlaendischen Gesellschaft*, 48 (3), 345–372. (In Ger.)

Hartmann, M. (1896). *Das arabische Vierzeiler* (Arabic quatrains), Leipzig, Hinrichs. (In Ger.)

Hartmann, M. (1902). *Caghataisches*, Heidelberg, Carl Winter's Universitaetsbuchhandlung. (In Ger.)

Heine, P. (2002). *Islamstudien ohne Ende Festschrift fuer Werner Ende zum 65 Geburtstag* (Islamic studies without end), Wuerzburg, Ergon Verlag, pp. 175–181. (In Ger.)

Jamol Kamol. (1991). *Qizil sorig yashil Alisher Navoiy ghazallari sharhlar* (Red yellow green Commentaries on Alisher Navoi's ghazals), Tashkent, Kamalak. (In Uzb.)

Kramer, M. (1989). *Middle Eastern Studies*, 25 (3), 63–86. (In Eng.)

Mangold, S. (2004). *Eine weltbuergerliche Wissenschaft Die deutsche Orientalistik im 19 Jahrhundert* (A cosmopolitan science German Oriental studies in the 19th century), Stuttgart, Franz Steiner Verlag. (In Ger.)

Marchand, S. L. (2009). *German Orientalism in the Age of Empire Religion Race and Scholarship*, New York, Cambridge University Press. (In Eng.)

Mark, R. A. (2012). *Im Schatten des Great Game Deutsche Weltpolitik und russischer Imperialismus in Zentralasien 1871–1914* (In the shadow of the Great Game), Paderborn, Munich, Vienna, Zurich, Verlag Ferdinand Schoeningh. (In Ger.)

Sadiq, M. (1888). *Caghataisches Materialien zu einer Geschichte der Sprachen und Literatur des Vorderen Orients*, Berlin, pp. 1–5. (In Ger.)

Tojikhoxhaev, M. (2016). *Uzbek adabiyoti namunalari Martin Hartmann tarjimasi va talqinida* (Samples of Uzbek literature in Martin Hartmann's translation and interpretation), Tashkent, Bayoz. (In Uzb.)

Wokoeck, U. (2009). *German Orientalism The Study of the Middle East and Islam from 1800 to 1945*, London, New York, Routledge. (In Eng.)

Ilovalar

1-ilova.

Ravshandururki, mehr yuzungdin olur safo,
Yo'qsa, ne zajh ila qamar andin topar ziyo?
G'arqi muhiti ishqing edi jon ila ko'ngul,
Ul damki, ruh emas edi tan birla oshno.
Gulda yuzung latofatidin range ko'rmasa,
Bulbulg'a ne edi bu fig'on birla, bu navo?
Bir zarra og'zi ramzini har kimki angladi,
Yo'li adam tariqiduru zodi rah — fano.
Ul zindadil hayoti abad vaslidan topar,
Kim neshi g'amni no'sh deru dardni davo.
Lomiki, vasl ayog'ig'a topmishtur ittisol,
Ul "lom"durki, o'rtag'a olmish oni "balo".
O'zdin qutul, Navoyiyu maqsadg'a yetki, qush
Yetmas chamang'a, bo'lsa qafas ichra mubtalo [Navoiy 1987:38].

2- ilova.

Dichters Newā'i und einige paränetische Stücke aus desselben Dichters *maḥbub ulqulub**); die Vokabeln sind in einer besonderen Tabelle verzeichnet**).

I¹.

۱ روشن دورور^۲ که مهر یوزینکدین آلور صفا ۵ یوقسا فی وجه ایلا
میر اندین تاپار ضیا
۲ غرق محیط عشقینک ایدی^۳ جان بیلا^۴ کونکول^۵ ۵ اولدم که روح
ایماس ایدی^۳ تن بیولا آشنا
۳ کل دا یوزونک لطافتیدین * ونک کورماسا^۶ ۵ بلبغه فی ایدی^۳ بو
فغان بیولا بو نوا
۴ بیر ذره اغزی رمزینی هر کیم که آنکلادی^۷ ۵ یولی عدم طریقی
دورور زادره فنا
۵ اول زنده دل حیات ابد * تاپتی وصلیدا^۸ ۵ کیم نیش غمنی^۹
نوش * دیر ودردی^{۱۰} دوا

۶ لامی که وصل * ایغی بیلا تالمیش^{۱۱} اتصال ۵ اول لام دور که اورتلغه
آلمیش آتی بلا
۷ اوزدین قوتول نوائی ومقصدغه^{۱۲} بیت که قوش ۵ بیتماس ۵ منغه
بولسا قفس اجرا مینلا

3- ilova.

Übersetzung:

1. Es ist klar, daß die Sonne von deinem Antlitz ihren Glanz erhält, wie sollte sonst der Mond von ihr Licht empfangen?

2. Versunken in den Ozean deiner Liebe waren Seele und Herz damals, als der Lebensodem noch nicht mit dem Leibe vertraut war.

3. Sähe ich nicht von deines Antlitzes Zauber einen Schein in der Rose, woher kämen der Nachtigall dieses Klagen, diese Melodien?

4. Wer so viel wie ein Sonnenstäubchen verstand von dem Rätsel (der geheimnisvollen Rede) deines Mundes, der erwählt als Weg die (Selbst-) Vernichtung und als Weg-zehrung die (Selbst) Entäußerung.

5. Jener Starkherzige findet das ewige Leben in seiner Liebesvereinigung, der den Kummer des Stachels Honig nennt und seinen Schmerz Arznei.


6. Das Lam, das am Ende des Wortes was! (Liebesvereinigung) Anschluß gefaden hat, ist eben jenes Lam, das das Wort bela (Pein) in seine Mitte genommen hat.

7. Mach dich los von dir selbst, Nawa'i, und gelange zum Ziel, denn nicht gelangt zur An der Vogel, wenn er im Käfig steckt.

4-ilova.

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to'ti takallum shakkaristondin judo.
Ul quyosh hajrida qo'rqarmen falakni o'rtagay
Har sharorekim, bo'lur bu o'tlug' afg'ondin judo.
Dema, hijronimda chekmaysen fig'onu nola ko'p,
Jism aylarmu fig'on bo'lg'on nafas jondin judo?
Bo'lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag'il
Yorni mendin judo yoxud meni ondin judo.
Hajr o'lumdin talx emish, mundin so'ng, ey gardun, meni
Aylagil jondin judo, qilg'uncha jonondin judo.
Vasl aro parvona o'rtandi, hamono bildikim
Qilg'udekdur subh ani sham'i shabistondin judo.
Bir iyosiz it bo'lub erdi Navoiy yorsiz,
Bo'lmasun, yo rabki, hargiz banda sultondin judo [Navoiy1987:42].

5- ilova.



6- ilova.

Übersetzung:

1. Wie soll die Nachtigall Melodien singen ohne Rosenhain?
Nicht redet der Papagei ohne Zuckerbüchse.
2. Bei der Trennung von jener Sonne fürchte ich, daß den Himmel verbrenne jeder Funke, der von dieser glühenden Klage sich trennt**).
3. Sage (mir) nicht: du klagst und weinst nicht genug bei der Trennung von mir; klagt der Leib, wenn der Lebens-odem von der Seele getrennt ist?
4. Hätte ich hunderttausend Seelen, nimm sie hin, o Trennung-(schicksal), aber trenne nicht den Freund von mir oder mich von ihm.
5. Trennung ist bitterer als Tod, darum, o Himmel, trenne mich von der Seele, sobald du mich vom Liebchen trennst¹.
6. In der Vereinigung verbrannte sich der Falter, da wußte er sofort, daß der Morgen ihn von der Kerze des Schlaf-gemachs trennen wird. I
7. Ein herrenloser Hund wurde Nawa'i ohne Freund; laß es nicht geschehen, o Herr, daß jemals der Diener getrennt werde von dem Herrscher.


[**von jetzt an trenne mich lieber von der Seele.](#)

7- ilova.

Mahvashekim, mehridin bo'ldum jahon ovorasi,
Rahm etib bir chora qilmas o'lsa ham bechorasi.
Zaxmlar qilding yana g'am neshidin, ey bevafo,
Butmish erdi vasil no'shi birla bag'rim yorasi.
Bevafolar ko'ngli, tong yo'q, lablaringg'a bo'lsa sayd,

Qaydakim la'l o'lsa atrofida bo'lur xorasi.
 Yuziga boqqoch, ajab yo'q ko'zlarimga to'lsa ashk,
 El ko'ziga yosh to'lar qilsa quyosh nazzorasi.
 Dardi hajringdin Navoiy ko'ngli, ko'ksi, bag'ridur
 Har biri yuz pora-vu ming yora har bir porasi [Navoiy1987:387].

8- ilova.



9- ilova.

Übersetzung:

1. Der Mondschröne, um dessen Liebe willen ich ein Welt-irrer geworden bin, hat kein Mitleid, gewährt keine Hülfe, stirbt auch sein Hülffloser.

2. Wunden schlugst du von neuem durch Kummers Stachel, du Treuloser, nachdem sich eben erst meine Herzenswunde durch den Honig der Liebesvereinigung geschlossen hatte.

3. Kein Wunder, wenn das Herz der Treulosen deinen Lippen eine Beute ist; wo sich Rubinen finden, da giebt's rings-um auch hart Gestein.

4. Kein Wunder, daß, blick ich auf dein Antlitz, meinen Augen die Thräne kommt: füllt sich doch das Auge der Menschen mit Wasser, wenn sie in die Sonne sehn.

Die Lange dieses bolur ist nicht ohne Interesse.

5. Durch den Schmerz der Trennung von dir ist Newai's Herz und Brust verwundet, jedes ist in hundert Stücke gegangen, und jedes davon wieder in tausend**.

**nach seinen Varianten: ist Newā's Herz, Brust und Eingeweide jedes in hundert Stücke gegangen und jedes Stück hat tausend Wunden vergl. jedoch das Lobgedicht V. 3 (S. 3).